



Received: August 4, 2023
Accepted: September 23, 2023
Available online: September 25, 2023

Dildora Kaxarova

Pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent
Buxoro davlat universiteti
Buxoro, O'zbekiston

Dildora Kaxarova

Associate Professor, Doctor of Philosophy in
Pedagogical Sciences (PhD)
Bukhara State University
Bukhara, Uzbekistan
E-mail: dildora.kaharova@mail.ru

INKLYUZIV TA'LIM TAHLILI

ANNOTATSIYA

Maqolada bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'lim tashkil etilgan o'quv muassasalarida oddiy va nogironligi bo'lgan bolalar guruhida moslashish (adaptatsion) jarayoni va o'zaro muloqotning perseptiv tomonlarini ochib berish maqsad qilib olingan. Muloqot jarayonida bolalar o'rtasidagi o'zaro bir-birini tushunish, bir-biriga yordam berish, hurmat qilish kabi xususiyatlar ochib berildi. Masalan, bolalar o'zaro bir-birini turlicha talqin qilishllari mumkin: o'zaro ta'sirga kirishuvchi sherigining maqsad va motivlarini tushunishi yoki nafaqat tushunish, balki qabul qilishi ham ehtimoldan holi emas. Biroq ikkala holda ham kishining o'zgalar tomonidan idrok etilishi jarayoni muloqotning majburiy tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada umumta'lim maktablarida inklyuziv o'qitishning mavjud muammo va qiyinchiliklarini, tashkiliy pedagogik-psixologik xususiyatlarini tahlil qilish; alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning individual xususiyatlarini, adaptiv imkoniyatlarini inobatga olgan holda testlar va so'rovnomalar o'tkazish hamda shu asosda inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilarning o'z-o'zini baholashlarini, mavjud metodlar asosida ijtimoiy moslashganligi (adaptatsion)ni, ayni paytda, muloqot-kirishuvchanlik darajasini aniqlash; ijtimoiy hayotga inklyuziv moslashuvini pedagogik-psixologik talablar integratsiyasi va inklyuziv ta'lim faoliyatini takomillashtirish modeli samaradorligini eksperiment ishlari orqali aniqlash vazifasi belgilandi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish zurligi, inklyuziv ta'lim tizimida o'tkazilgan tajriba sinov – tahlili bayon qilindi va tavsiyalar berildi. Umumiy o'rta ta'lim

ANALYSIS OF INCLUSIVE EDUCATION

ABSTRACT

The purpose of the article was to reveal the perceptual aspects of the process of adaptation and interaction in a group of normal children and disabled children in educational institutions where inclusive education is organized. In the process of communication, such features as mutual understanding, mutual assistance and respect between children were revealed. For example, children may interpret each other differently: they may not understand or not only understand, but also accept the goals and motives of their interaction partner. However, in both cases, the process of perceiving a person by others is an obligatory component of communication.

The article analyzes the existing problems and difficulties of inclusive education in secondary schools, organizational, pedagogical and psychological features; conducting tests and questionnaires taking into account the individual characteristics and adaptive capabilities of students who need special attention, and on the basis of this self-assessment of students participating in inclusive education, social to determine adaptation (adaptation), at the same time the level of communication and accessibility; the task of determining the effectiveness of the model for integrating pedagogical and psychological requirements and improving inclusive educational activities through experimental work has been determined. As a result, the need to train future teachers of inclusive education based on a competency-based approach is described, an experimental test and analysis carried out in the inclusive education system is carried out, and recommendations are made. Methods and stages of effective organization of inclusive education technology in general education institutions are

muassasalarida inklyuziv ta'lim texnologiyasini samarali tashkil etishning metod va bosqichlari aniqlandi va keng bayon qilindi. Maxsus maktablardagi ta'lim tizimining inklyuziv ta'lim bilan bog'liqligi hamda inklyuziv ta'limning nogironlik turlariga bog'liqligi haqida takliflar ishlab chiqildi. Xulosada bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyatga aylanganligi, shuningdek, inklyuziv ta'limga tayyorlashning nazariy va amaliy hamda pedagogik va metodik tizimi aniqlandi.

O'tkazilgan nazariy izlanishlar va eksperimental tadqiqotlar asosida inklyuziv ta'limni tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini takomillashtirish asosida metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv, integratsiya, alohida e'tiborga muhtoj bolalar, ko'nikma, nuqsonli bolalar, qobiliyat, pedagogik-psixologik, aqliy bilim, psixokorreksiya mashqlari.

KIRISH

Yurtimizda inklyuziv ta'limni samarali joriy etish va nogiron bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning qulay yo'llarini aniqlash maqsadida, tadqiqotning maxsus ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb etish imkoniyatlari, shart-sharoitlari o'rganildi. Maxsus pedagogik-psixologik amaliyotda zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi bolalarni, kasalligi yengil daraja bo'lgan alohida e'tiborga muhtoj bolalarni umumta'lim maktablariga oilasining ixtiyoriga ko'ra, tengdoshlari bilan birga ta'lim-tarbiya olishiga, ya'ni inklyuziv ta'lim olishiga jalb etilgan.

Jahonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish amaliyoti tendensiyasini yanada takomillashtirishda bo'lajak o'qituvchilarini mehnat bozoriga mos raqobatbardoshlik, muhitga tez moslashuvchanlik, muammoli vaziyatlardan oson chiqqa olish, kompetensiyaviy yondashuv asosida kasbiy salohiyat tarkibini o'zida qaror toptirish talab etiladi. Shuning uchun jahon andozalariga mos yuqori malakali inklyuziv ta'limga tayyor pedagoglarining zaruriy kasbiy xususiyatlarni kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish, uzluksiz ta'limning barqaror taraqqiylashishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Shu sababli inklyuziv ta'lim dasturlarini yangilash, ixtisoslik fanlari mazmunini amaliy ko'nikmalariga yo'naltirish, bo'lajak o'qituvchilarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sharoitlarini yaratish bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

identified and described in detail. Suggestions have been made about the connection between the education system in special schools and inclusive education and the connection between inclusive education and types of disabilities. In conclusion, it was determined that the development of future teachers based on a competency-based approach has become a social and pedagogical necessity, as well as a theoretical, practical, pedagogical and methodological system of preparation for inclusive education.

Based on the conducted theoretical studies and experimental studies, methodological recommendations have been developed on the basis of improving the pedagogical and psychological characteristics of the organization of inclusive education.

Key words: inclusive education, competency-based approach, integration, children in need of special attention, skills, disabled children, abilities, pedagogical-psychological, mental knowledge, psychocorrectional exercises.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ta'lim muassasalarida nuqsonli bolalarga ta'lim-tarbiya berish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning psixologik va pedagogik xususiyatlari, ularning nuqsonlarini korreksiyalash, o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish, bolalardagi nutqiy kamchilikni o'rganish va uni bartaraf etish kabi muammolar R.Jo'rayev, Sh.Qurbonov, F.R.Kadirov (1990), G'.Shoumarov (2009), L.Mo'minova, H.Kalbayeva, L.Nurmuhamedova, R.Sh.Shomahmudova (2011), J.Yo'ldoshev (2004), V.M.Karimova (2015), U.I.Inoyatov (2003), R.Ishmuxamedov (2010), B.B.Ma'murov (2009) singari o'zbek psixolog-pedagog mutaxassislarining ilmiy ishlarida ham tadqiq etilgan. Bu olimlarning ishlarini ko'rib chiqish orqali inklyuziv ta'lim va u bilan bog'liq muammolarning ma'lum darajada ilmiy tadqiq etilganligini, oila masalalari har bir millat uchun nihoyatda muhim ekanligini anglash mumkin.

G'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQShda inson psixologik xususiyatlari bilan bog'liq tajribalarga asoslangan ilmiy nazariya va yo'nalishlar XX asrning boshlarida vujudga keldi. Odam psixik tabiatini turlicha talqin qilinishi bu nazariyalarning nogiron bolalar pedagogik-psixologiyasi fanlari rivojlanishiga ma'lum darajada turtki bo'ldi. Bu borada, J.Bryuno, J.Piajet, A.Vallon, S.Xoll, Ye.Meyerman, K.Byuler, Y.Dyurkgeym, D.Lokk va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Chunonchi, Angliyalik olim Djon Lokk dunyoga kelgan yangi chaqaloq bolaning ruhini "top-toza taxtaga" o'xshatadi. U bolaning "top-toza taxta" tarzidagi ruhiyatiga nima yozish bu kattalar ixtiyoridadir, uning qanday inson bo'lib yetishishi, unda qanday shaxsiy fazilatlar tarkib topishi, bola hayotdan oladigan tajribaga, o'zgalar bilan muloqot jarayonida qoladigan hayotiy tushuncha va tasavvurlarga bog'liqligini ta'kidlaydi [Locke, 1997].

Amerikalik olim S.Xoll har qanday bola o'zining individual taraqqiyotida filogenezni ontogeneza takrorlaydi, shu bois bolalarga ibtidoiy instinktlarni og'riqsiz, yengil kechishi uchun qulay imkoniyatlar yaratib berish zarurligini aytadi [Xoll, 1925]. U o'z tajribalari asosida boy ashyoviy dalillar to'plab bola ta'lim-tarbiyasi haqida psixologik, fiziologik bilimlarning mujassam dasturini yaratish g'oyasini olg'a surgan.

Shveysariyalik pedagog-psixolog olim Y.Klapared o'zining "Bola psixologiyasi va eksperimental pedagogika" asarida qiziqish, motiv, ehtiyojlarning metodologik asoslari, bolalar tafakkurining xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlari, o'xshashlik va tafovutning bola ongida sodir etilishi to'g'risida mulohaza yuritilgan [Klapared, 2007].

Olmoniyalik Y.Meyerman fikricha, eksperimental pedagogika va psixologiyaning maqsadi bolaning maktab davrida uning ruhiyatida, vujudida kechayotgan o'zgarishlarni to'liq bilmay turib, unga buyruq berib yoki tazyiq o'tkazib bo'lmashligini ta'kidlaydi [Nishanova va boshq., 2018]. Amerikalik J.Bryuno shaxsning shakllanishi bilan ta'lim o'rtaida o'zaro aloqa mavjudligini ta'kidlab, insonning kamolot sari intilishi bilim olish samaradorligini oshirsa, o'qitishning takomillashuvi uning ijtimoiylashuvini jadallashtirishini ta'kidlaydi. U o'z ilmiy qarashlarida ancha dadil g'oyalarni ilgari surgan. Uning taxminiga ko'ra har qanday fanni har qaysi yoshdagi

bolaga samarali o'rgatish mumkin. Bunda faqatgina har bir yosh bosqichida bola olamni o'ziga xos tarzda ko'rishi va tushunishini e'tiborga olish hamda o'rgatiladigan bilimlarni bolaning qarashlariga monand talqin etish talab qilishini uqtiradi [Bruno, 2004; 73-74]. Shuningdek, A.Bine va V.Shtern ham bola psixik taraqqiyotida ta'lim-tarbiyaning mavqeini, ularning aqliy xususiyatlarini, dasturli ta'lim, ko'nikma va malakalarning ahamiyatini, psixokorreksiya mashqlarining o'rnini ilmiy va amaliy jihatdan asoslab berishda muhim o'rin egallaganlar va bu ta'limotlar inklyuziv ta'lim yo'nalishida muhim ahamiyatga ega.

V.Shternning ta'kidlashicha, bolaning dastlabki olti yoshida bilimlari o'ziga xos tarzda egallanadi. Maktabgacha yoshdagi bola hali, o'qish uchun anglanilgan irodaga ega emas, maktab o'quvchisi uchun esa o'qish berilgan materialni ongli tarzda o'zlashtirish niyati va bu bilimlardan o'zining kelajagi uchun mulk sifatida foydalanish, butun holicha saqlab olish istagidir. V.Shtern "Maktabgacha yoshdagi bola, ayni bugungi kuni bilan shunchalik mashg'ulki, u ertangi kun, kelajak uchun biror-bir narsani egallash istagidan uzoqdir" deydi [Matyukhina i dr., 1984]. Demak, maktabgacha yoshdagi bolaning o'qishi boshqa faoliyatning mahsuli hisoblanib, tevarak atrofdan, o'yin orqali qolgan ta'ssurotlarni ongsiz tarzda tanlash asosida hosil bo'ladi.

Shveysariyalik pedagog-psixolog J.Piajetning fikricha, bolaning aqliy rivojlanishi o'z ichki qonunlari asosida taraqqiylashib borib, sifat jihatidan o'ziga xos bir qator genetik bosqichlarni bosib o'tadi. Ta'lim, bu – aqliy yetilish jarayonini faqat bir qadar tezlatishga yoki sekinlashtirishga qodir, lekin u aqliy jihatdan yetilish jarayoniga hech qanday jiddiy ta'sir ko'rsata olmaydi. Demak, ta'lim insonning rivojlanish qonunlariga bo'ysunishi kerak [Piaget, 1951]. Masalan, bolada mantiqiy tafakkur yetilmay turib, uni mantiqiy fikr yuritishga o'rgatishga foydasizdir. Ta'limning turli bosqichlarida bolaning tegishli pedagogik-psixologik imkoniyatlari pishib yetiladigan muayyan yosh bilan bog'liqligi ana shundan kelib chiqadi.

Rivojlangan davlatlarda inklyuziv ta'lim-tarbiyani takomillashtirish bo'yicha bir qancha izlanishlar va ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, amerikalik Ture Yonssonning "Inklyuziv ta'lim" nomli qo'llanmasi ham nogironlar uchun xalqaro ta'lim dasturining asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Ushbu manbada alohida e'tiborga muhtoj bolalar va o'smirlarni mustaqil hayot qurishlari va yashashlari uchun xalqaro ta'lim-tarbiya berish dasturining asosiy jihatlari ochib berilgan [Yonsson, 2002]. Shuningdek, kanadalik D.Baynning "Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalar" nomli dasturida nogiron va alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish, ularni maxsus joylarda tashkil etish lozimligi va shuning uchun davlat tomonidan maxsus dasturlar asosida ish olib borilishi bo'yicha tavsiyalar bergan [Bayn, 1991].

Kristin Maylz "Aqlan zaif o'quvchilar uchun maxsus ta'lim" monografiyasida rivojlanishida orqada qolgan va aqli zaif bo'lgan bolalar, o'quvchilar va o'smirlar uchun maxsus ta'lim-tarbiya berishning vazifalari belgilab berilgan. Bunday vaziyatda ishlaydigan tarbiyachi, pedagog, tibbiyot xodimlari maxsus bilim va tayyorgarlikka ega bo'lishli ko'rsatib berilgan [Baratov, 1997; 79].

Rus psixologi L.S.Vigotskiy o'z ilmiy qarashlarida ilgari surgan ko'plab g'oyalar bevosita bolalarning psixik rivojlanishiga taalluqlidir. Uning oliy psixik funksiyalar shakllanishi haqidagi qonuni bolalar tarbiyasi va ta'limini amalga oshirishda katta ahamiyatga ega. L.S.Vigotskiy madaniy-tarixiy konsepsiya ishlab chiqqan. Bu konsepsiya shaxsning psixik rivojlanishi haqidagi nazariyadir. Olim ilmiy qiziqishlarining markazida, bolaning ijtimoiy-madaniy rivojlanishi masalasi turadi. L.S.Vigotskiyning ilmiy izlanishlari oliy bilish psixik xususiyatlari: ixtiyoriy xotira, diqqat, tafakkur, mantiy fikrlash singari irodaviy harakatlarini bevosita miyaning faoliyati bilan tushuntirib bo'lmashligini, ushbu funksiyalarning mohiyatini tushuntirish uchun, ularning ildizlarini organizmdan tashqaridagi ijtimoiy muhitdan izlash lozimligini ta'kidlaydi [Vigotskiy, 1984; 126].

Demak, bolaning tarbiya va o'quv faoliyatida orqada qolishi, psixik funksiyalarning o'zlashtirilmaganligi natijasidir. Masalan, bolaning kiyim kiyishida ketma-ketlikni buzilishi uning xotirasi zaifligidan emas, balki ushbu jarayonni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilish xususiyatlarini egallamaganligi tufaylidir. Bunday psixik muammoni psixokorreksiyalash usullari bilan, ya'ni bolaga kiyimlarni to'g'ri ketma-ketlikda kiyish tasvirlangan rasmlar ko'rsatilishi bilan bartaraf etish mumkin.

Alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga jalb qilish va ularni ta'lim va tarbiyalashda inklyuziv ta'lim strategiyalarini rivojlantirishda quyidagi to'rt bosqich yoki yo'nalish mavjudligini ko'rish mumkin: 1. Ajratish bosqichi. 2. Shug'ullanish bosqichi. 3. Reabilitatsiya bosqichi. 4. Integratsiya bosqichi (1-rasmga qarang).

1-rasm.

Inklyuziv ta'limni rivojlantirish bosqichlari




1. Ajratish bosqichi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan odamlarning hayoti, asosan, yakkalab qo'yishlar bilan bog'liq. Jamiyatlardagi ko'plab nogiron odamlarga qo'rquv va past nazar bilan qarab, ulardan voz kechib kelinmoqda. Nogiron odamlar kambag'allikdan qiynalishadi. Agar ularga biror ish berilsa, bu ish eng yomon ishlardan biri bo'ladi. "Ularning qalbida shayton o'rnanib olgan yoki ular yovuzlik va jodugarlik qurbonlari" deb qabul qilinganligi sababli, ba'zi hollarda ularni ataylab

o'ldirishadi. Rivojlanishning bu bosqichida nogiron odamlarga ahamiyat bermaslik, ularni qabul qilmaslik, azoblash va ulardan g'araz niyatlarda foydalanish ularni jamiyatning chiqindilariga aylantiriladi.

Shug'ullanish bosqichi. Nogiron odamlarga diniy va insonparvarlik nuqtai nazaridan yordam beriladi, ular haqida qayg'uriladi. Ko'p hollarda bunday munosabatlar nodavlat uyushmalar tomonidan amalga oshiriladi. Ular uchun nogiron odamlar yordam ko'rsatish obyekti. Ular o'zlariga ko'rsatilayotgan yordamlarning sifatini baholay olishmaydi. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda bu kabi ishlar ta'lim tizimida nogiron bolalar uchun maxsus ta'limni tashkil etish bilan amalga oshiriladi. Ko'p davlatlarda o'z-o'zini boshqaruvchi bir qancha maxsus muassasalar tashkil etilgan. Bunday muassasalarga jalb qilingan nogironligi bo'lgan bolalar yaxshi ta'lim-tarbiya olishadi, lekin ota-onalari va qarindosh-urug'lari bilan kam aloqada bo'lishadi. Shu sababli ularning ko'pchiligi ikkinchi nogironlikni ham orttirib oladi. Bu ularning segrastiya (ajralgan holda bo'lish) darajasini yanada yomonlashtiradi. Bolalarning ba'zilar butun umrlarini ushbu maktablarda o'tkazishadi (2-rasmga qarang).

2-rasm.



1. Reabilitatsiya bosqichi. Bu bosqichda nogiron, ijtimoiy himoyaga muhtojligi bo'lgan bolalarning muammolarini o'rganish hamda ularga umumiy ijtimoiy-pedagogik, defektologik, logopedik, psixologik, huquqiy, uslubiy, axborot-ta'limiy, tibbiy yordamlar ko'rsatish nazarda tutiladi. Ya'ni nogironligi tufayli bajara olmaydigan faoliyatlarni bajarish, qobiliyatlari va imkoniyatlari darajasini kengaytirish maqsadida faoliyat olib boriladi. Shu sababli bu bosqichda nogiron bolalar uchun nafaqat ta'lim-tarbiya, balki ularning faolligini oshiruvchi, ruhiyatini ko'taruvchi treninglar olib boriladi. Ularga obyekt emas, balki subyekt darajasida muomala qilinadi. Natijada ularning nima qila olmasligi emas, balki ular nimalar qilishga qodir ekanligi diqqat markazida turadi. Shu bilan bir vaqtda, ularning oddiy maktablarda maxsus sinflar ochish orqali majburiy ta'limi joriy etilmoqda. Bunday fikr nogironlarga bo'lgan achinishdan emas, balki nogironligi bo'lgan bolalar ham o'zlarining sog'lom tengdoshlari qatorida ta'lim olishga haqli ekanliklarini anglashdan kelib chiqqan. Bu

bosqichda saralash quroli sifatida aqliy testlar juda muhim ahamiyatga ega.

2. Integratsiya (aralashuv, qo'shiluv) bosqichi. Jamiyat rivojining nogiron odamlarga butunlay moslashayotganligi ushbu yangi paydo bo'lgan bosqichning dalilidir. Unda nogironlik shaxsni o'rab turgan atrof-muhit o'rtasidagi aloqaning natijasi sifatida ko'riladi. Jamiyat o'zining har bir a'zosiga moslashishga harakat qiladi. Bu barcha kuchlar odamlarni jamiyatga emas, balki jamiyatni odamlarga moslashtirishga sarflash kerakligini anglatadi.

Nogiron bolalarni hayotga tayyorlash jarayonida ularning nogironlik xususiyatlarini inobatga olmaslik mumkin emasligi hammaga ma'lum. Shunday ekan, integratsion ta'lim-tarbiya, asosan, birinchi va ikkinchi nogironlik belgilari bo'lgan bolalar orasida yaxshi natija berishini unutmash kerak. Nogironlik bola ruhiyatiga qanchalik singgan yoki nogiron bola o'z holatiga qanchalik ko'nikkan bo'lmasin, shunday o'tish davrlari bo'ladiki, u o'z nogironligidan ayni shu davrda chuqur ruhiy iztirob chekadi. Nogironlarning bunday ruhiy qiynalish davri 3-4 yoshlarda birinchi bor hayajonli his qilish bilan cheklanadi.

Bola bu davrda o'zining boshqalardan "mana shu" tomoni bilan farq qilishini anglab etadi-yu, yoshlik, tajribasizlik qilib qattiq aziyat chekmaydi. Ikkinchi bir ruhiy azob ancha chuqurlashib, o'spirinlikka o'tish paytida namoyon bo'ladi. Bu davrda nogiron bola o'z nogironligini qisman bo'lsa ham yengilroq tushunadi, ammo hali oldindagi hayotni butun qiyinchiliklari bilan tasavvur qilolmaydi.


Nogironlikni eng og'ir his qiladigan davr bola uchun balog'at yoshiga o'tish paytiga to'g'ri keladi. Bu davrda nogiron yoshlarning atrofidagi tarbiyaviy muhit hamma vaqt ham yaxshi, mo'tadil bo'lishi bilan bir vaqtda, ayniqsa, o'tish davrida alohida e'tiborda bo'lib, kattalarning nazaridan chetda qolmasligi kerak. Nogiron bolalar tarbiyasiga alohida e'tibor beriladigan yana bir tomon shundaki, bu ona tabiatning saxiyliги bilan bog'liq bo'lgan hol, ya'ni bunday bolalarda biror kamchilik ikkinchi bir fazilatning, xususiyatning kuchliroq namoyon bo'lishidir. Ko'zi zaiflarda eshitishning kuchli bo'lishi, biror-bir jismoniy kamchiligi bor shaxslarda tirishqoqlikning kuchli bo'lishi va boshqalar. Demak, ayni shu holat nogiron bolalarni tarbiya qilishda ko'zdan qochirilmasa, ulardagi jismoniy va ruhiy kamchilik o'z o'rnida boshqa tomon bilan to'ldiriladi. Ayni shu hol ularning tarbiyasida kengroq qo'llanilsa, tarbiyada yaxshi natijalarga erishiladi. Nogiron bolalarning qaysi mehnatga qobiliyatlari kuchli bo'lsa, o'sha faoliyat bilan kengroq shug'ullanishiga sharoit yaratish ularning ta'lim-tarbiyasida asosiy o'rin tutmog'i kerak.

Uchinchi guruh nogironligi bo'lgan bolalarning tarbiya jarayoni ancha qiyin kechadi. Vaholanki, ularning xatti-harakatiga adekvat, mutanosib tarbiyaviy tadbir topib qo'llash mutaxassis bo'lmagan tarbiyachilarga tarbiya jarayonini jiddiy mashaqqatga aylantirib qo'yishi mumkin. Masalan, aqliy xususiyatida jizg'anaklik, chayirlik, xarxashaga moyillik, bir so'z bilan aytganda, asabiy nuqsoni bor nogironga axloq-odob normalarini singdirish u yoqda tursin, unga ularni eslatish, aytishning o'zi jiddiy janjalga, xarxashaga olib kelishi mumkin. Odatda, bunday xususiyatli bolalar o'z quvvatidagi xavfsizlik nuqsonini bilmagan holda odamlar nazarida, guruh diqqat markazida bo'lishni yaxshi ko'radi. Demak, ularning xatti-harakatida chapanilik,

maqtancholik, voqea-hodisalarni sillqilashtirish, bo'rttirishga moyillik kuchli bo'ladi. Nogironlik darajalariga qarab aloxida e'tiborga muhtoj bolalar (3-rasm) bog'liqligini tahlil qilish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayni shu harakatlari bilan ular o'z shaxslarini birinchi o'ringa ko'tarib ko'rsatishga urinib yurishadi. Aqliy jihatdan boshqalardan ustun emasligiga qaramay, tengdoshlari ustidan hukmronlik qilish, ularga buyruq berishni yoqtiradi. Bu ular orasida ko'pgina janjallar, noroziliklar xulq, axloq va xarakterlarining nomutanosibligini keltirib chiqaradi. Ayni shu hollarni inobatga olgan holda bunday nogiron bolalar tarbiyasi sog'lom bolalarga nisbatan integratsion yo'nalishda emas, differensiallashgan holda, ya'ni uchinchi guruh nogironlari va sog'lom bolalar tarbiyasi jiddiy farqlanmog'i kerak.

3-rasm.



Inklyuziv ta'lim-tarbiyada ijtimoiy-psixologik jihatlar nogironlik turlariga bog'liq bo'ladi. Nogironlik darajalari yoki guruhlari ortib borishi tarbiyaning psixologik xususiyatlarini belgilaydi.

Demak, nogironlikning o'zini tarbiyada uch guruhga ajratish va 1-, 2-guruh nogironlarini iloji boricha sog'lom bolalar bilan yaqinlashtirib, tarbiya jarayonini uyushtirish jamiyatni sog'lomlashtiradi, degan xulosaga olib keladi. Bu o'rinda hozirgi tarbiya jarayoni ayni shu yo'nalishda borayotganini ko'rish mumkin. Ma'lumki,

bola ongiga aloqador nogironlik mavjudligi ta'lim borasida sog'lom bolalar bilan bir xil ta'lim olishga yo'l qo'ymaydi. Bunday hol sog'lom bolalarning ta'limida nogironlardan o'zib ketishi va nogiron bolaning butun sinfni orqaga tortishiga olib kelishi aniq. Shuning uchun ham a'zolarida nuqsoni bir-biroviga o'xshash va yaqin bo'lgan bolalarning alohida sinflarini tashkil qilib o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Insonning yaratilishi mo'jizadir. Jamiyat tomonidan uning qalbiga yo'l topilishi va ayniqsa, nuqsoni bor bolalarning jamiyatdan chetda qolmasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, jamiyat o'z orasidan hech bir nogironni siqib chiqarmasligi kerak. Ularning tarbiyasini to'g'ri tashkil qilish va aynan shularga bo'lgan muomalaga qarab har qanday jamiyatning sog'lomligini baholasa bo'ladi.

Bola dunyoga kelar ekan, uning rivojlanishi, psixologik holatining shakllanishi, tafakkuri, ongi, ruhiy holatlarining o'sishi, uni o'rab turgan borliqqa moslashishiga sharoit yaratadi. Uning qanday o'sishi, ichki ruhiy holatining o'zgarishi, jismonan yaxshi shakllanishi yoki tabiatan qanday a'zolarida tug'ma kamchiliklari va nuqsonlari bilan tug'ilishiga bog'liq bo'ladi. Dastlab alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning ta'lim-tarbiyasi, ularni mustaqil hayotga tayyorlash, ota-onasi tomonidan faol amalga oshiriladi. Agar bola biror tana a'zolarida nuqsoni bilan tug'lsa yoki yashash davomida biror hodisa tufayli qaysidir a'zosi ishlamay, nogiron bo'lib qolsa, bunday yordamga muhtoj bolalarga maxsus ta'lim tarbiya-berish alohida metodlar asosida amalga oshiriladi.

Tana a'zolarida nuqsoni bor bolalarni oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, o'rta-maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimida, oliy ta'lim va undan keyingi ta'limda maxsus dasturlar, ta'lim-tarbiya shakllari, materiallari maxsus xizmatlar va faoliyat turlari asosida amalga oshiriladi. Inklyuziv ta'lim maxsus metodika asosida tashkil qilinsa, uning samaradorligi yuqori darajada bo'ladi. Ushbu ta'lim turida so'rovnomalari o'tkaziladi, test savollari tuziladi, ularning natijalari tahlil qilinadi va tavsiyalar tayyorlanadi.

Inklyuziv o'qitish tashkil etilgan ta'lim muassasalarida pedagogik-psixologik faoliyatni takomillashtirishda, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning sog'lom o'quvchilar orasidagi munosabatni, mulokotni, shuningdek, nogiron o'quvchilar kasallik tashxislaridan kelib chiqib, turli korreksion pedagogik-psixologik metodlarni doimiy olib borish, mavjud muammolarni hal etishda yordam beradi. Ta'lim-tarbiya tizimining sifat va samaradorligini oshirishda, integratsiyalashda yetarli darajada xizmat ko'rsatadi. Bu jarayonda bolalarning ruhiy holati, kechinmalari tahlil qilinadi. Ularning shakllanishidagi inson tiplari va holatlari baholanadi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyati va turlari. Tadqiqot jarayonida inklyuziv ta'limni tashkil etishning nazariy asoslariga tayanilgan holda tajriba-sinov ishlarining tashkil etilishiga ham alohida e'tibor qaratildi. Tajriba-sinovning asosiy maqsadi inklyuziv ta'limga bo'lgan munosabatlarning asosiy talablariga javob beradigan ijtimoiy pedagogik-psixologik moslashganlik (adaptatsiya), o'zaro munosabatlarning shakllanganligini aniqlashdan iborat. Bu mezonlar quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

— ijtimoiy tizimda o'z o'rniga ega bo'lish;

— o‘zining hayotiy potentsiali asosida rivojlanish qobiliyatini shakllantirish;
— shaxslararo munosabatlar va atrof-muhitdan subektiv qoniqish natijalariga ko‘ra bilimlarni o‘zlashtirishda va ularni amaliyotda qo‘llashda yoshlarning pedagogik-psixologik tayyorligi va barqarorligini tadqiq qilish.

Nogironlik tibbiyot ilmida uch guruhga ajratilgan. 1- va 2-guruh alohida e‘tiborga muhtoj bo‘lgan bolalari ta‘lim-tarbiya jarayonini iloji boricha sog‘lom bolalar bilan yaqinlashtirib tashkil etish jamiyatni sog‘lomashtiradi. Hozirgi tarbiya jarayonida ayni shu holat shakllanayotganini ko‘rish mumkin. Ma‘lumki, bola ongiga aloqador nogironlik mavjudligi ta‘lim borasida sog‘lom bolalar bilan bir xil qobiliyatga ega bo‘lishga yo‘l qo‘ymaydi.

Bizga ma‘lumki, inklyuziv ta‘limda nogironligi bo‘lgan bolalarga ta‘lim va tarbiyada teng huquq va imkoniyatlar tengligini berishdir. Masalan, maktabga sog‘lom bolalarning barchasi borsa, nogiron bolalarning ham imkoniyati borlari to‘la qamrab olinishi kerak. Chunki inklyuziv ta‘limning oiladan, maktabgacha ta‘lim muassasalaridan boshlab yo‘lga qo‘yilishi muhim ahamiyatga ega. Bu bolaning keyinchalik atrofida gilar bilan erkin muloqotda bo‘lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera olishiga va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko‘nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, ta‘lim muassasalarida tengdoshlari qatori darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishiga, topshiriqlarga mas‘uliyat bilan yondashish ko‘nikmasini egallashlariga ko‘maklashadi. Biroq inklyuziv ta‘limni nafaqat nogiron yoshlar o‘rtasida, balki sog‘lom turmush tarzi mavjud bo‘lgan oiladagi bolalar o‘rtasida, maktabgacha ta‘lim muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda, oliy o‘quv yurtlarida fanlarni o‘zlashtirish darajasi turlicha bo‘lgan yoshlar orasida ham joriy etish mumkin.

Eksperiment metod sifatida pedagogika va psixologiya fanlarida keng qo‘llaniladi. Pedagogikaga doir ko‘plab tadqiqotlarda ilmiy tadqiqotning asosiy metodi sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, pedagogik tadqiqotlarning shakllantiruvchi – muammoni hal etishning yangi, samarali usullarini sinovdan o‘tkazish bosqichida keng qo‘llaniladi. Ushbu tadqiqotda inklyuziv ta‘limni tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlari takomillashtirildi, tabiiy shakllantiruvchi eksperimentdan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish uchun dastlab aniqlangan pedagogik shart-sharoitlar asosida jarayonni tashkil etishning zaruriy vositalari belgilab olindi.

Amaliy tajriba ishlarining ma‘lum maqsad va unga muvofiq belgilangan vazifalar asosida tashkil etilishi quyidagi holatlarni yuzaga keltirdi: tajriba-sinov ishlarining aniq yo‘nalishga ega bo‘lishi; nogiron bolalarning adaptatsion jarayoni, muomala munosabatlariga doir metodik ishlanmalardan samarali foydalanish; tajriba-sinov ishlarini olib borishga sarflanayotgan vaqtdan unumli foydalanish; kutilayotgan natijani oldindan ko‘ra bilish; aniq natijani qo‘lga kiritish; tajriba-sinov ishlarining yuqori darajadagi samaradorligining ta‘minlanishi.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi uch bosqichda amalga oshirildi:

1. Asoslovchi tajriba bosqichida inklyuziv ta‘lim tashkil etilgan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida va ularga jalb qilingan nogironligi bo‘lgan va sog‘lom o‘quvchilar orasidagi o‘zaro munosabat bilan bog‘liq mavjud holatni aniqlashga yo‘naltirilgan

pedagogik-psixologik faoliyat tashkil etildi. Koʻzda tutilgan maqsadga erishishda umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 2-, 4-sinflarida tahsil olayotgan inklyuziv taʼlimga jalb qilingan oʻquvchilar bilan ishlash jarayonini kuzatish, suhbat, anketa soʻrovlari kabi metodlardan foydalanildi. Bularning barchasi tadqiqotning asosiy yoʻnalishi va dasturini muayyan darajada aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot mavzusiga oid yetakchi olimlar, pedagoglarning ilmiy ishlari tahlil qilindi.

2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida tavsiya etilayotgan koʻrsatma, yoʻriqnoma va metodik ishlanmalar asosida amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Bunda nogironligi boʻlgan oʻquvchilar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida mashgʻulotlar oʻtkazish, suhbat va anketa soʻrovi (2-ilovada aks etgan) kabi metodlar yordamida inklyuziv taʼlimga jalb qilingan oʻquvchilar faoliyatiga yoʻnaltirilgan pedagogik-psixologik kuzatuvni yoʻlga qoʻyish asosida adaptatsiya, oʻz-oʻziga baho berish, muloqotchanlik, oʻzaro ijobiy munosabatlarni shakllantirishga katta ahamiyat qaratildi. Belgilangan nazariy qarashlar asosida tajriba-sinov mashgʻulotlari olib borildi. Tajriba-sinov ishlarining ikkinchi bosqichida amalga oshirilishi rejalashtirilgan ishlar qatorida nogironligi boʻlgan va sogʻlom bolalarning adaptatsion, muloqotchanlik, oʻzaro munosabatlariga doir ishlarga alohida ahamiyat qaratildi.

3. Taʼkidlovchi tajriba bosqichida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan va pedagogik amaliyotga tavsiya etilgan metodik taʼminotning samaradorlik holati aniqlandi. Inklyuziv taʼlim tashkil etilgan muassasalarda pedagogik-psixologik jarayon samaradorligini yanada oshirish borasida amalga oshirilgan ishlarni mustahkamlash maqsadida dars beruvchi oʻqituvchilar uchun koʻrsatmalar, tavsiyalar ishlab chiqildi. Shakllantiruvchi tajriba-sinov mashgʻulotlari oʻtkazildi, tadqiqot natijalari amaliyotga tatbiq etildi. Tajriba-sinov ishlari jarayonida inklyuziv taʼlim tashkil etilgan muassasalarda pedagogik-psixologik jarayon ijobiy natijalarga erishilganligi matematik-statistik metodlar hamda xolis ekspertlar tomonidan baholash orqali tasdiqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi obyektiv va subyektiv omillarning mavjudligi hisobiga taʼminlandi: inklyuziv taʼlim jarayoniga doir metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi; taʼlim jarayonida zamonaviy texnik vositalar va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanilganligi; inklyuziv taʼlimga jalb etilgan oʻquvchilar bilan ishlashga doir elektron-didaktik taʼminotning ishlab chiqilganligi; inklyuziv taʼlim tashkil etilgan muassasalarga yuqori salohiyatga ega pedagoglarning jalb etilganligi; oʻquvchilarning internet texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlariga egaliklari va hokazo.

Shuningdek, tajriba-sinov ishlari davomida tadqiqot obyekti sifatida inklyuziv taʼlimga jalb etilgan oʻquvchilar bilan ishlashda qoʻllanilgan metodlar quyidagicha guruhlandi:

1. Inklyuziv oʻqitishning taʼlim tizimidagi oʻrni va ahamiyatini oʻrganishda testlash soʻrovnomasi yordamida umumiy oʻz-oʻziga baho berishni oʻrganib chiqish.

2. Oʻquvchilarning adaptatsion jarayonini oʻrganuvchi metodika (T.D.Duboviskayaning adaptatsiyani aniqlovchi metodikasi 3-, 4-ilovalarda oʻz aksini

topgan)dan foydalanish.

3. Inklyuziv ta'limga jalb qilingan o'quvchilar orasidagi muloqot, munosabatini o'rganish uchun xizmat qiluvchi metodlar – so'rovnomalar, anketalar, testlar.

4. “Inklyuziv o'qitishning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyatini o'rganishda testlash so'rovnomasi yordamida umumiy o'z-o'ziga baho” metodikasi orqali sinaluvchining o'ziga baho berishi umumiy tadqiqotni bosqichma-bosqich amalga oshirishga va mantiqiy davomiylikni ta'minlashga xizmat qiladi. Tajriba-sinov ishlari ushbu metodining boshqa metodlardan farqi shundaki, unda sinaluvchi tadqiqot o'tkazuvchi tomonidan baholanmay, balki o'zini-o'zi baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, tadqiqot natijalarini umumlashtirish va guruhlashda ko'rgazmali axborot metodidan foydalanildi.

5. O'quvchilarning adaptatsion jarayonini o'rganuvchi metodika (T.D.Dubovitskayaning adaptatsiyani aniqlovchi metodikasi) quyidagi holatlarda qo'llanilishi mumkin:

- jamoada guruhlar shakllanganda, o'quvchining sinfdagi o'rnini aniqlashda;
- sinf a'zolari bilan tanishuvida yoshlarni turli kasblar bo'yicha yo'naltirish jarayonida (asosan, inson-inson yo'nalishida);

- ishlab chiqarish guruhlarining mutaxassisliklar asosida tanlovi kerakli va ijtimoiy hamkorlikning muvaffaqiyatli kechishida “o'quvchi-o'qituvchi”, “o'quvchi-guruh” tuzilmalari o'zaro munosabatini o'rganib korrektsiyalash maqsadida o'tkaziladi.

Foydalanilgan metodlar yordamida quyidagi vazifalar hal qilindi: 1) havola etilgan savollarga qaytargan javoblarni umumlashtirish;

2) tajriba-sinov ishlari bosqichlari, yakuniy ko'rsatkichlar hamda asoslovchi, oraliq va yakuniy tajriba-sinov ishlari natijalarini ifodalovchi jadvallarni tahlil qilish, qiyoslash, taqqoslash asosida nazorat va tajriba guruhlarini statistik tahlil etish.

Quyida umumiy o'rta ta'lim tizimida tashkil etigan inklyuziv o'qitish jarayoni va pedagogik-psixologik faoliyat samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlarini tashkil etish davrida qo'llanilgan metodlardan ayrimlarining amaliy ahamiyati va qo'llashdan ko'zlangan maqsad to'g'risida qisqacha so'z yuritiladi:

1. Pedagogik kuzatuv metodi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan o'quvchilarning adaptatsion darajasini o'rganish, ularni moslashganlik va sog'lom bolalar bilan o'zaro munosabatlariga yordam beruvchi pedagogik omillarni aniqlash maqsadida qo'llanildi. Ushbu metodni qo'llash orqali nogiron adaptatsiyasi, muloqot va o'zaro munosabatlariga to'sqinlik qiluvchi muammolar aniqlandi hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari belgilandi.

2. Anketa metodi. Bu metod ham nogiron o'quvchilar adaptatsiyasi, muloqot va o'zaro munosabat masalasida ularning qay darajada shakllanayotganini o'rganish, bu borada samaradorlikka erishishni kafolatlovchi obyektiv va subyektiv omillarning mavjudligini aniqlash, o'quvchilarning o'zaro munosabat darajasini baholash maqsadida qo'llanildi.

Tajriba-sinov davrida ochiq anketalardan foydalanildi. Buning sababi tajriba-sinov jarayoniga jalb etilgan o'quvchilardan muammoy yechimini topishda

ahamiyatli bo'lgan ma'lumotlarni ko'proq olishdan iborat bo'ldi. Anketa so'rovlari ikki bosqichda, ya'ni ta'kidlovchi va yakunlovchi tajriba-sinov davrida tashkil etildi. Har ikki bosqich natijalari o'zaro qiyosiy tahlil etilib, nogiron o'quvchilarning adaptatsion va muloqotchanlik darajasi hamda tajriba-sinov ishlarining samaradorligi aniqlandi.

3. Suhbat metodi. Bu metod ham anketa metodi kabi tadqiqot uchun muhim ahamiyatga ega ma'lumotlarni to'plash maqsadida qo'llanildi. Shu o'rinda alohida ta'kidlab o'tish kerakki, anketa metodida bir qator afzalliklarga ega bo'lishi bilan birga ayrim cheklovlar ham mavjud. Masalan, anketa metodidan foydalanishda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilar ularga berilgan savollarga noxolis, noto'g'ri javob qaytarishlari ham mumkin. Bu, o'z navbatida, olinadigan ma'lumotlarning ishonchli bo'lmasligi va pedagogik nuqtai nazardan asoslanmasligiga olib keladi.

Shu sababli anketa so'rovlarining bevosita davomi, to'ldiruvchisi sifatida suhbat metodidan foydalanish tajriba-sinov ishlarini etarli darajada tashkil etilishini, kutilgan natijalarga erishishni ta'minladi.

4. Intervyu metodi ham bir qator afzalliklarga egaligi sababli tajriba-sinov ishlarini olib borishda undan unumli foydalanildi. Intervyu metodini qo'llashda tajriba-sinov ishlariga jalb etilgan o'quvchilarga qo'shimcha savollar berish orqali muammoning mohiyati ochildi, ko'zlangan maqsadga erishishga yordam beruvchi ma'lumotlar to'plandi.

Intervyu, asosan, nogironligi bo'lgan o'quvchilarning adaptatsion jarayoni muloqotchanligiga oid maxsus metodikani amaliyotga joriy etishdan oldin va keyin uyushtirildi. Bu tajriba-sinov ishlarini tashkil etishga qaratilgan maxsus metodikaning samaradorligini bevosita baholab borish imkonini berdi.

5. Pedagogik tajriba metodi – tadqiq etilayotgan muammoning ijobiy hal etilishiga yo'naltirilgan faoliyatning yaxlit tizimi sifatida namoyon bo'ladi. Alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan o'quvchilarni adaptatsion, muloqotchanlik va o'zaro munosabatlarida mazkur metoddan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi va tajriba-sinov ishlarini olib borishda bu metod bevosita qo'llanildi.

6. Interfaol metodlar nogironligi bo'lgan o'quvchilarning o'quv faolliklarini kuchaytirish, ularda adaptatsion, muloqotchanlik va o'zaro munosabatlarga hamda ularni yanada mustahkamlash, o'quvchilarda o'z-o'zini tahlil, nazorat va baholash qobiliyatlarini oshirish maqsadida qo'llanildi. Ushbu metodlar tadbirlarning qiziqarli o'tishini ta'minlashga asos bo'ldi.


7. Matematik-statistik metod (Styudent-Fisher metodi). Pedagogik yo'nalishda olib boriladigan tadqiqot ishlarida matematik-statistik metod o'ziga xos o'rin tutadi. Zero, tadqiqot muammosi doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samaradorligini aniqlash orqali tadqiqotning natijalari to'g'risida yakuniy xulosaga kelishda matematik-statistik metoddan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yengil darajadagi nogironligi bo'lgan o'quvchilardagi adaptatsion, muloqot va o'zaro munosabat darajalari hamda uni aniqlash tartiblari to'g'risidagi ilmiy qarashlarni tahlil etish, o'quvchilarning o'zini-o'zi baholash darajasi, moslashganlik (adaptatsion) va muloqotchanlik mezonlari aniqlashtirildi [Kaxarova & Baratov,


2016].

Tajriba-sinov jarayonida berilgan savolnomalar tahlili

(3,4- sinflar o'quvchilar uchun tuzilgan savolnomalar)

1-savol. Darslarni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelasizmi? (3-sinflar)

■ Toshkent shahar ■ Surxondaryo viloyati ■ Xorazm viloyati

2-savol. Sinf doshlarigiz bilan do'stlashishda qiyinchiliklarga duch kelasizmi? (4-sinflar)

■ Toshkent shahar ■ Surxondaryo viloyati ■ Xorazm viloyati

Mazkur mezonlarga asoslangan holda ularni shartli ravishda uch–moslashuvchan, muloqotchan va o'z-o'zini baholash guruhlariga tasniflash asosida o'quvchilarning moslashuvchanligi va muloqotchanligining quyi, o'rta va yuqori daraja ko'rsatkichlari aniqlandi va tadqiqot doirasida muayyan mezonlar ishlab chiqildi:

1) o'qituvchining tushuntirganlari asosida darslikdan matnni mustaqil o'qib-o'rganish;

2) matndagi eng muhim atamalarni ajratib olish;

3) matndagi ma'lumotlarni tahlil etish;

4) ma'lumotlarni bir-biri bilan taqqoslay olish;

5) matndagi eng asosiy ma'lumotlarni ajrata olish;

6) mavzudagi voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildiray olish;

7) mavjud tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslay olish;

8) o'z qarashlarini asoslay olish;

9) mustaqil ravishda yakuniy xulosalar chiqara olish va boshqa.

Mazkur mezonlar asosida alohida e'tiborga muhtojligi bo'lgan bolalardagi adaptatsion, muloqot va o'zaro munosabat darajalari va uni aniqlash tartiblari to'g'risidagi ilmiy qarashlarni tahlil etish, engil nogironligi bo'lgan o'quvchilarning o'zini o'zi baholash darajasi, adaptatsion va muloqotchanlik ko'nikmalarining

shakllanganligini aniqlashda uch daraja asos qilib olindi.

1. Yuqori daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari o‘ta kuchli. Darslikdagi materiallarni mustaqil o‘qib o‘rganadi. O‘zidagi mavjud tasavvurlar bilan hozir o‘rganilayotganlarini taqqoslaydi. O‘z fikrini erkin bayon eta oladi. Boshqalar bilan faol munozaraga kirisha oladi, kirishimli, muloqatchan, o‘z qarashlarni dadillik bilan himoya qiladi. Materiallarni umumlashtirib, bayon eta oladi. O‘rganilganlarini amaliyotga tatbiq eta oladi.

2. O‘rta daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoji mavjud. Darslikdagi materiallarni mustaqil o‘qib o‘rganadi. Mavzudagi eng muhim atamalarni ajrata oladi, lekin doimo to‘g‘ri tanlay olmaydi. Mavzudagi voqea-hodisalarni tahlil eta oladi. Mavjud tasavvurlarini boshqalarniki bilan taqqoslay oladi, ba’zi holatlarda biroz qiynaladi. O‘z fikrini bayon eta oladi. O‘rganganlari asosida materialni bayon etib bera oladi.

3. Quyi daraja – bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari mavjud, lekin barqaror emas. O‘qituvchi yordamida darslikdagi materiallarni o‘qib-o‘rganadi. O‘zidagi mavjud tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslashga harakat qiladi. O‘z fikrini qiynalmasdan, erkin bayon eta olmaydi. Yozganlariga asoslanib, materialni og‘zaki bayon etib bera oladi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi uning maxsus dastur asosida olib borilganligi, tajriba-sinov maydonchalarining geografik joylashuvi, pedagogik shart-sharoitlarning maqbulligi, sifat darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili bilan ta’minlandi.

Yuqorida sanab o‘tilgan metodlardan jamoa, guruhlar va sinflarda yoki individual holatlarda, o‘qituvchi, yosh bolalar, murabbiy, guruh rahbari, maxsus tarbiyachi o‘qituvchilar tanishuvida, yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish jarayonida, sport musobaqalari, korreksion maqsadda o‘tkazilgan pedagogik amaliyotda foydalanish mumkin va intellektual shaxsni shakllantirishda yuqori samaradorlikka erishish mumkin bo‘ladi. Treninglar o‘tkazish har xil o‘yinlar tashkil qilish orqali turmushda, hayotda xulq-atvorni aniqlash va hokazo yigirmaga yaqin faoliyatga xos bo‘lgan metodlar ilova qilindi, inklyuziv ta’lim-tarbiya jarayonida qo‘llanilsa yaxshi samarali natijalarga erishish mumkin.

Inklyuziv ta’limda erishilgan yuqori daraja – o‘quv-tadqiqotchilikka doir faoliyatga qadriyatli munosabatning qaror topganligi, ichki bilish motivlarining shakllanganligi, kognitiv va ijtimoiy tavsifdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga qobiliyatlilik, izlanishli-tadqiqotchilikka doir topshiriqlarni bajarishda ijodiy yondashuvning namoyon bo‘lishi, umumta’limiy kompetensiyalarning to‘liq shakllanganligi kabi jihatlarida o‘z aksini topdi.

MUNOZARA

Inklyuziv ta’limni tashkil etishning pedagogik-psixologik asoslarini tahlil etishga qaratilgan tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlari amalga oshirilib, korreksion chora-tadbirlar asosida kamchiliklar bartaraf etib borildi.

Ma’lumotlarni to‘plash, miqdor va sifat jihatidan tahlil etishda turli metodlardan foydalanish, olingan natijalarni statistik tahlil etish natijalarning ishonchliligiga

asoslanib ilmiy xulosalar chiqarishga imkon berdi.

Tajriba-sinov ishlariga Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 324-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 3-umumta'lim maktabi va Xorazm viloyati Urganch shahridagi 10- va 22-umumta'lim maktablarida inklyuziv tartibda ta'lim olayotgan 480 nafar o'quvchi jalb etildi.

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida tadqiq etilayotgan inklyuziv ta'limga jalb etilgan o'quvchilar soni quyidagi ko'rinishni hosil qildi. Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 324-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi, tajriba-sinovga jalb etilgan respondentlar (o'quvchilar) bo'yicha statistik ma'lumotlar (1-jadvalga qarang).

1-jadval.

Shayxontoxur tumanidagi 324-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabida tajriba-sinovga jalb etilgan respondentlar bo'yicha statistik ma'lumot

Sinflar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami o'quvchilar soni	Nogironligi bo'lgan o'quvchilar soni	Nogironligi bo'lgan o'quvchilar soni %
2-A, B	32 nafar/1	31 nafar/2	63 nafar	3 nafar	4,7
3-B, G	32 nafar/2	28 nafar/2	60 nafar	4 nafar	6,6
4-A, B	36 nafar/1	35 nafar/1	71 nafar	2 nafar	2,8
Jami	100 nafar/4	94 nafar/5	194 nafar	9 nafar	4,6

Surxondaryo viloyati Termiz shahridagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi, tajriba-sinovga jalb etilgan repondentlar (o'quvchilar) bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan (2-jadvalga qarang).

Quyida Xorazm viloyati Urganch shahridagi 10-, 22-umumiy o'rta ta'lim maktablarida tajriba-sinovga jalb etilgan respondentlar (o'quvchilar) bo'yicha statistik ma'lumotlar keltirilgan (3-jadvalga qarang).

2-jadval.

Termiz shahridagi 3-umumiy o'rta ta'lim maktabi tajriba-sinovga jalb etilgan respondentlar bo'yicha statistik ma'lumot

Sinflar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami o'quvchilar soni	Nogironligi bo'lgan o'quvchilar soni	Nogironli bo'lgan o'quvchilar soni %
2-A, B	24 nafar/2	24 nafar/2	48 nafar	4 nafar	8,3
3-A, B	23 nafar/2	23 nafar/2	46 nafar	4 nafar	8,6
4-A, B	30 nafar/1	27 nafar/2	51 nafar	3 nafar	5,8
Jami	77 nafar/4	68 nafar/5	145 nafar	11 nafar	7,5

3-jadval.

Urganch shahridagi 10- va 22-umumiy o'rta ta'lim maktabi tajriba-sinovga jalb etilgan respondentlar bo'yicha statistik ma'lumot

Sinflar	Tajriba guruhi	Nazorat guruhi	Jami o'quvchilar soni	Nogironligi bo'lgan o'quvchilar soni	Nogironli bo'lgan o'quvchilar soni %
2-A, B	23 nafar/2	22 nafar/1	45 nafar	3 nafar	6,6
3-A, B	24 nafar/1	23 nafar/1	45 nafar	2 nafar	4,4
4-A, B	35 nafar/1	34 nafar/2	69 nafar	3 nafar	4,3
Jami	82 nafar/4	79 nafar/4	154 nafar	8 nafar	5,1

Tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida o'tkazilgan anketa, suhbat natijalari quyidagi tendensiyalarni ajratib ko'rsatish imkonini berdi. Mazkur natijalarga asoslangan holda o'quvchilar bilan individual, guruh bo'lib ishlashda o'qituvchilar uchun tavsiyalar ishlab chiqildi va amaliyotga tatbiq etildi. Mazkur natijalarga asoslangan holda nogiron o'quvchilar bilan ishlashda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan ijtimoiy-pedagogik texnologiyalar ta'lim amaliyotiga tatbiq etildi.

Tajriba-sinov ishlarining so'nggi bosqichida tajriba guruhlarida o'quvchilarning o'zini baholash va moslashganlikni aniqlash komponentlari o'sishini yaqqol kuzatish mumkin.

Tajriba-sinov ishlarining barcha bosqichlarida o'quvchilarning amaliy harakatlarini kuzatish, ularning o'quv faoliyatini tashkil etish jarayoniga bo'lgan munosabatlari ham sinchiklab o'rganildi. O'rganish natijalari samarali pedagogik-psixologik faoliyatni tashkil etishi maqsadga muvofiq ekanligini yana bir bor tasdiqladi.

Pedagogik tajriba-sinov natijalapini tahlil etishda o'quvchilardan olingan ma'lumotlarni baholash asosida tajriba va nazorat sinflaridagi natijalar matematik-statistika metodik yordamida tahlil etildi. Hisoblashga qulay bo'lishi uchun representativ ravishda tajriba sinfining 246 nafar va nazorat sinfining 234 nafar o'quvchisi natijalari asos sifatida olindi.

Samaradorligi bashoratlangan dasturning ta'lim amaliyotiga qay darajada mosligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida bo'yicha tajribadan avvalgi va keyingi holatlar qiyosiy tahlil qilindi. Yakunlovchi tajriba-sinov jarayonida olib borilgan amaliy o'rganish natijasida tajriba va nazorat guruhlarida quyidagi ko'rsatkichlar yordamida ularga mos ravishda 1-tanlanma va 2-tanlanmalarning variatsion qatorlari hosil qilindi. Tajriba sinov guruhi nazorat guruhiga nisbatan 11,7% ga ustun ekanligi aniqlandi (4-jadvalga qarang):

4-jadval.

Variatsion qatorlarning ko'rsatkichlari


Tanlanmalar	Guruhlar	Respondentlar	Toshkent	Surxondaryo	Xorazm
1-tanlanma	Tajriba (X_j)	246	100	78	68
2-tanlanma	Nazorat (Y_j)	234	94	75	65

Tajriba-sinov ishlarining yakuniy bosqichida tadqiq etilayotgan sifatlar darajasi bo'yicha o'quvchilarning foiz ko'rsatkichlari quyidagi tarzda namoyon bo'ldi. Tanlanmalar ko'rsatkichlari yordamida quyidagi diagramma shakllantirildi (4-rasmga qarang).

Bu ko'rsatkich Toshkent shahrida aholi sonining ko'pligi uchun boshqa viloyatlarga nisbatan yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Samaradorligi bashoratlangan dasturning ta'lim amaliyotiga qay darajada mosligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarida bo'yicha tajribadan avvalgi va keyingi holatlar qiyosiy tahlil qilindi. Yakunlovchi tajriba-sinov jarayonida olib borilgan amaliy o'rganish natijasida tajriba va nazorat guruhlarida olingan ko'rsatkichlar yordamida ularga mos ravishda 1- va 2-tanlanmalarning variatsion qatorlari hosil qilindi, natijada 11,7% nazorat guruhida yuqori ekanligi aniqlandi (5-rasmga qarang).

4-rasm.

O'quvchilarning o'zini baholash va moslashganlik darajalari viloyatlar kesimida

5-rasm.


O'quvchilarning o'zini baholash va moslashganlik darajalari

Diagramma grafiklaridan tajriba va nazorat guruhlarida qayd etilgan ko'rsatkichlarning tanlanma modal qiymatlari mos ravishda $M_t=5$ va $M_n=3$ ga tengligini, ya'ni ular orasida keskin farq mavjudligi (matematik nuqtayi nazardan $M_t=M_n$ ga teng)ni anglash mumkin. Bu holat belgilangan tanlanmalar uchun mos bo'lgan o'rtacha qiymatlar $X>Y$ shartni qanoatlantirishdan dalolat beradi. ko'rsatkichlar yordamida Student-Fisher metodi formulasiga muvofiq statistik tahlil amalga oshirildi:

$$\bar{X} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i x_i = \frac{1}{261} (71 \times 5 + 136 \times 4 + 54 \times 3) = \frac{1}{261} (355 + 544 + 162) = \frac{1061}{261} = 4,1$$

$$\bar{Y} = \frac{1}{n} \sum_{i=1}^{n=3} n_i y_i = \frac{1}{254} (53 \times 5 + 115 \times 4 + 86 \times 3) = \frac{1}{254} (265 + 460 + 258) = \frac{983}{254} = 3,8$$

Hisob-kitob natijalari tajriba guruhlarida qayd etilgan ko'rsatkichlarning nazorat guruhlariga tegishli bo'lgan ko'rsatkichlardan katta ekanligini tasdiqladi. Bu matematik nuqtayi nazardan $X > Y$ ga tengligidan dalolat beradi.

Tanlangan metod mohiyatiga ko'ra navbatdagi bosqichda har ikki guruh uchun tarqoqlik koeffitsiyentlarini topish talab etiladi. Buning uchun avvalo tanlanma dispersiyalarini aniqlab olish lozim. Tanlanma dispersiyalari quyidagi formula yordamida topiladi:

$$D_m = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (x_i - \bar{x})^2 / (n-1) = \frac{71(5-4,1)^2 + 136(4-4,1)^2 + 54(3-4,1)^2}{261} =$$

$$= \frac{71 \times 0,81 + 136 \times 0,01 + 54 \div 1,21}{261} = \frac{57,51 + 1,36 + 65,34}{261} = \frac{124,2}{261} \approx 0,48$$

$$D_n = \sum_{i=1}^{n=3} n_i (y_i - \bar{y})^2 / (n-1) = \frac{53(5-3,8)^2 + 115(4-3,8)^2 + 86(3-3,8)^2}{254} =$$

$$= \frac{53 \times 1,44 + 115 \div 0,04 + 86 \times 0,64}{254} = \frac{76,32 + 4,6 + 55,04}{254} = \frac{136}{254} \approx 0,53$$

Tanlanma dispersiya qiymatlari asosida o'rtacha kvadrat chetlanishlar aniqlanadi. Ya'ni:

$$\tau_m = \sqrt{0,48} \approx 0,69 \quad \tau_n = \sqrt{0,53} \approx 0,73$$

O'rtacha kvadrat chetlanishlarning ko'rsatkichlari esa o'z navbatida tajriba va nazorat guruhlar uchun variatsiya qiymatlarini belgilash imkoniyatini yaratadi. Buning uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\delta_m = \frac{\tau_m}{\bar{X}} = \frac{0,69}{4,1} \approx 0,17 \quad \delta_n = \frac{\tau_n}{\bar{Y}} = \frac{0,73}{3,8} \approx 0,19$$

Statistik alomatning qiymatdorlik darajasi $a=5$ deb qabul qilinadi hamda Laplas funksiyasi jadvali bo'yicha statistik tahlil uchun kritik nuqta (t_{kr}) aniqlanadi. An'anaga ko'ra kritik nuqta

$$\Phi(t_{kr}) = \frac{1-2\alpha}{2} = \frac{1-2 \cdot 0,05}{2} = \frac{0,9}{2} = 0,45$$

tenglikdan topilib, (t_{kr}) 1,67ga teng bo'ladi. Kritik nuqta qiymatidan foydalangan holda baholashning ishonchli chetlanishlari aniqlanadi. Olib borilgan hisoblashlar natijasida baholashning ishonchli chetlanishlari tajriba guruhlarida 0,04ga, nazorat guruhlarida esa 0,06ga tengligi ma'lum bo'ldi. Bu qiymatlar quyidagi formulalar yordamida aniqlandi:

$$\Delta_m = t_\gamma \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,48}{\sqrt{261}} = 1,67 \cdot \frac{0,48}{16,2} = \frac{0,8016}{16,2} \approx 0,04$$

$$\Delta_n = t_\gamma \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} = 1,67 \cdot \frac{0,53}{\sqrt{254}} = 1,67 \cdot \frac{0,53}{15,9} = \frac{0,8851}{15,9} \approx 0,06$$

Baholashning ishonchli chetlanishlarini ifodalovchi qiymatlar yordamida har

ikki guruh uchun ishonchli intervallar aniqlanishi talab etiladi va hisoblash ishlari quyidagi formulalar yordamida amalga oshiriladi:

$$\bar{X} - t_{\gamma} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}} \leq a_x \leq \bar{X} + t_{\gamma} \cdot \frac{D_m}{\sqrt{n}}$$

Natijada tajriba va nazorat guruhlari uchun qiymatlar hosil bo'ladi.

Tajriba guruhlari uchun:


$$4,1 - 0,04 \leq a_x \leq 4,1 + 0,04 \quad 4,06 \leq a_x \leq 4,14$$

Nazorat guruhlari uchun:

$$\bar{Y} - t_{\gamma} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}} \leq a_y \leq \bar{Y} + t_{\gamma} \cdot \frac{D_n}{\sqrt{n}}$$

$$3,8 - 0,06 \leq a_y \leq 3,8 + 0,06 \quad 3,74 \leq a_y \leq 3,86$$

Tajriba va nazorat guruhlariga tegishli bo'lgan ishonchli intervallar geometrik tasvirni ifodalashga imkon beradi. Ya'ni:



Bundan $\alpha = 0,05$ qiymatdorlik darajasiga ko'ra tajriba guruhlariga tegishli o'rtacha baho ko'rsatkichlari nazorat guruhlarining ko'rsatkichlariga qaraganda yuqori va hosil bo'lgan intervallar ustma-ust tushmaydi.

Student-Fisher metodi mazmuniga ko'ra tajriba-sinov ishlari samaradorligini belgilovchi sifat ko'rsatkichlarini ham topish talab etiladi. Buning uchun tajriba va nazorat guruhlariga tegishli bo'lgan o'rtacha qiymatlar hamda baholashning ishonchli chetlanishlarini ifodalovchi ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Hisoblashlar jarayonida ularning $\bar{X}=4,1$; $\bar{Y}=3,8$; $\Delta_m=0,03$; ga tengligi ma'lum bo'lgan edi. Ushbu qiymatlarga tayangan holda sifat ko'rsatkichlari quyidagi formulalar yordamida amalga oshiriladi:

$$K_{\text{yc}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_m)}{(\bar{Y} + \Delta_n)} = \frac{4,1 - 0,04}{3,8 + 0,06} = \frac{4,06}{3,86} = 1,05 > 1;$$

$$K_{\text{dof}} = (\bar{X} - \Delta_m) - (\bar{Y} - \Delta_n) = (4,1 - 0,04) - (3,8 - 0,06) = 4,06 - 3,86 = 0,2 > 0;$$

Natija tajriba-sinov ishlari samaradorligini baholovchi mezonning birdan, bilish darajasini baholash mezonining noldan kattaligini ko'rsatadi. Bu esa, o'z navbatida, tajriba guruhlariga tegishli natijalarning nazorat guruhlari natijalariga ko'ra yuqori ekanligini ifodalaydi. Shunday qilib, statistik tahlil o'quvchilarni moslashganlik va muloqotchanlikka yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi.

XULOSA

Matematik-statistik tahlil nogiron o'quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishga yo'naltirilgan tajriba-sinov ishlarining samarali kechganligini tasdiqladi. Inklyuziv

ta'limni samarali tashkil etish, uni joriy qilish, ularga yaratilgan shart-sharoitlarni o'rganish, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga moslashtirishning qulay yo'llarini aniqlash maqsadida ta'lim muassasalarining maxsus maktablarda, ta'lim olayotgan imkoniyati cheklangan bolalar, inklyuziv ta'limga qamrab olindi. Masalan, zaif eshituvchi, zaif ko'ruvchi, yengil skolioz kasalligibilan kasallangan o'quvchilarni kasalligi yengil darajada bo'lgan (1- va 2-darajali), maxsus muassasalarda o'qiydigan alohida e'tiborga muhtoj bolalar umumta'lim maktablariga oilasining ixtiyoriga ko'ra inklyuziv ta'limga jalb etildi. Nogironlik xususiyatlarini inobatga olib, alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni hayotga moslab tarbiyalash jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, kasalligi yengil darajada bo'lgan nogironlik belgilari bor bolalar orasida inklyuziv ta'lim samaradorligini yuqori darajada bo'lishi, tadqiqotning tajriba-sinov natijalariga ko'ra o'z isbotini topdi. Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'limni oiladan, so'ng maktabgacha ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy ta'lim muassasalarida joriy etish ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lim alohida e'tiborga muhtoj bolalarga umumta'lim jarayonidagi barcha tadbirlarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lim o'qishning uzluksiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila-bolalar bog'chasi-maktab-kasb-hunar kolleji-ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga alohida e'tiborga muhtoj bolalarini umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi. Bo'lajak mutaxassislar inklyuziv ta'limga tayyorligini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirishda ularning pedagogik xususiyatlari, imkoniyatlari hamda inklyuziv ta'limning asosiy funksiyalari shaxsning ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish, xatti-harakatlarini ijtimoiy rivojlanishiga yo'naltirish, har bir o'quvchiga individual yondashib shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlarini hisobga olgan holda uning iqtidori va shaxsiy salohiyatini ochib berish vazifasi maqsad qilinadi.

1-ilova.

Natijalarni tahlil qilish:

Punktlar bo'yicha besh variant javobga ega bo'lgan punktlarda olingan ballar quyidagi holatda hisoblab chiqiladi.

To'g'ridan-to'g'ri savollar (№ 4, 6, 8,10, 14, 17, 20,23, 25, 27, 30, 32, 34, 35, 38, 43, 44, 45, 46, 47)

Javoblar varianti	Ballar
umuman, qat'iy noroziman	-2
vaqti bilan noroziman	-1
bilmayman roziman yoki noroziman	0
vaqti bilan roziman	1
qat'iy roziman	2

Qarama-qarshi savollar (№ 2, 3, 5, 7, 9, 11, 12, 13, 15, 16, 19, 19, 22, 24, 26, 28, 29, 33, 37, 39, 41, 42, 48)

Javoblar varianti	Ballar
umuman, qat'iy noroziman	-2
vaqti bilan noroziman	-1
bilmayman roziman yoki noroziman	0
vaqti bilan roziman	1
qat'iy roziman	2

Javoblar uch variantga ega bo'lgan savollar (№ 1, 18, 21, 31, 36, 40)

№ punkti	1	18	21	31	36	40												
Javob varianti	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3	1	2	3
Ballar	2	0	-2	2	0	-2	-2	2	0	-2	0	2	-2	0	2	2	0	-2

Savollardan 1-, 3-, 7-, 10-, 12-, 13-, 18-, 20-, 2-1, 23-, 24-, 25-, 27-, 29-, 34-, 35-, 37-savollar tolerantlik trening harakatiga juda ta'sirchan bo'lib chiqadilar. Bu degani tolerantlik aspektlarini o'lchash muhtojligida shu savollar bilan cheklanib qolishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baratov, Sh.R. (1997). O'zbekistonda psixologik xizmat tashkil etishning ijtimoiy-psixologik va ilmiy-amaliy asoslari. *Ped. fan. dok. diss.* Toshkent.
2. Bayn, D. (1991). *Rivojlanayotgan mamlakatlarda nogiron bolalar: baholash, dastur va ko'rsatmalar*. Kanada: Albert Universiteti.
3. Bruno, J. (2004). Odarennye deti: psixolo-pedagogicheskie issledovaniya i praktika. *Psixologicheskiy jurnal*, 4, 73–75.
4. Inoyatov, U.I. (2003). Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovy upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje. *Diss. dok. ped. nauk.* Toshkent.
5. Ishmuxamedov, R., Abdukodirov, A., & Pardayev, A. (2010). *Tarbiyada innovatsion texnologiyalar*. Toshkent: Iste'dod jamg'armasi.
6. Kadyrova, F.R. (1990). Didakticheskie igri v obuchenii detey russkoy razgo-vornoy rechi v uzbekskom detskom sadu. *Avtoref. diss. kan. ped. nauk.* Toshkent.
7. Karimova, V.M. (2015). *Ijtimoiy psixologiya*. Toshkent: Moliya.
8. Kaxarova, D.S., & Baratov, Sh. (2016). *Inklyuziv ta'lim*. Toshkent: Navro'z.
9. Klapared, E. (2007). *Psixologiya rebenka i eksperimentalnaya pedagogika*. Moskva: Izdatelstvo LKI.
10. Locke, J. (1997). *An essay concerning human understanding*. London: Penguin Books.
11. Matyuxina, M.V., Mixalchik, T.S., & Prokina, N.F. (1984). *Vozrastnaya i pedagogicheskaya psixologiya*. Moskva: Prosvesheniye.
12. Ma'murov, B.B. (2009). O'quvchi shaxsiga yo'naltirilgan o'quv-bilish jarayonini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari. *Ped. fan. dok. diss.* Toshkent.
13. Nishanova, Z.T., Kamilova, N.G., Abdullayeva, D.U., & Xolnazarova, M.X. (2018). *Rivojlanish psixologiyasi. Pedagogik psixologiya*. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyat nashriyoti.
14. Piaget, J. (1951). *The psychology of intelligence*. London: Routledge.
15. Vygotskiy, S.L. (1984). *Sobranie sochineniy v 6-ti tomax*. Moskva: Pedagogika.
16. Xoll, S. (1925). *Ocherki po izucheniyu rebenka*. Moskva: Puchina.
17. Yonsson, T. (2002). *Inklyuziv ta'lim*. Toshkent: Respublika ta'lim markazi.

18. Yoʻldoshev, J.G., & Usmonov, S. (2004). *Ilgʻor pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: “Oʻqituvchi” nashriyoti.
19. Shomahmudova, R.Sh. (2011). *Maxsus va inklyuziv taʼlim. Xalqaro va milliy tajribalar*. Toshkent: Chashma Print.
20. Shoumarov, G., Shomahmudova, R., Moʻminova, L., & Kalbayeva, H. (2009). *Oʻzbekiston Respublikasida inklyuziv taʼlim konsepsiyasi*. Toshkent: Ijtimoiy tashabbuslarni qoʻllab-quvvatlash fondi.

REFERENCES

1. Baine, D. (1991). *Children with disabilities in developing countries: assessment, programs and guidelines*. Canada: University of Albert.
2. Baratov, Sh.R. (1997). Social-psychological and scientific-practical foundations of psychological service organization in Uzbekistan. *DSc thes. ped. scien*. Tashkent.
3. Bruno, J. (2004). Gifted children: psycho-pedagogical research and practice. *Journal of Psychology*, 4, 73–75.
4. Claparède, E. (2007). *Child psychology and experimental pedagogy*. Moscow: Publishing House of LKI.
5. Hall, S. (1925). *Essays on the study of the child*. Moscow: Puchina.
6. Inoyatov, U.I. (2003). Theoretical, organizational and methodological foundations of management and quality control of education in a vocational college. *DSc thes. ped. scien*. Tashkent.
7. Ishmukhamedov, R., Abdukodirov, A., & Pardayev, A. (2010). *Innovative technologies in education*. Tashkent: Talent Fund.
8. Jonsson, T. (2002). *Inclusive education*. Tashkent: Republican Education Center.
9. Kadyrova, F.R. (1990). Didactic games in teaching children Russian colloquial speech in an Uzbek kindergarten. *Abs. diss. can. ped. scien*. Tashkent.
10. Karimova, V.M. (2015). *Social psychology*. Tashkent: Finance.
11. Kaxarova, D.S., & Baratov, Sh. (2016). *Inclusive education*. Tashkent: Nowruz.
12. Locke, J. (1997). *An essay concerning human understanding*. London: Penguin Books.
13. Mamurov, B.B. (2009). Pedagogical conditions for the organization of the educational process directed at the personality of the student. *DSc thes. ped. scien*. Tashkent.
14. Matyukhina, M.V., Mikhalechik, T.S., & Prokina, N.F. (1984). *Developmental and educational psychology*. Moscow: Enlightenment.
15. Nishanova, Z.T., Kamilova, N.G., Abdullayeva, D.U., & Kholnazarova, M.Kh. (2018). *Developmental psychology. Pedagogical psychology*. Tashkent: Publishing House of the National Society of Philosophers of Uzbekistan.
16. Piaget, J. (1951). *The psychology of intelligence*. London: Routledge.
17. Shomahmudova, R.Sh. (2011). *Special and inclusive education. International and national experiences*. Tashkent: Chashma Print.
18. Shoumarov, G., Shomahmudova, R., Mominova, L., & Kalbayeva, H. (2009). *Concept of inclusive education in the Republic of Uzbekistan*. Tashkent: Fund for the Support of Social Initiatives.
19. Vygotsky, S.L. (1984). *Collected works in 6 volumes*. Moscow: Pedagogy.
20. Yoldoshev, J.G., & Usmanov, S. (2004). *Advanced pedagogical technologies*. Tashkent: Publishing House of ‘Teacher’.